



Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq
kengashi

SOG'LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASI

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Sogʻliqni saqlash va farmatsevtika sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Sogʻliqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashii tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-016



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasining Milliy malaka ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Sog'liqni saqlash va farmatsevtika" sohasiga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. Tarmoq malaka ramkasi mazkur sohadagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi – tarmoqda malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini shakllantirish, Milliy malaka ramkasi asosida mavjud va istiqbolli kasb/lavozimlar bo'yicha yagona talablarni belgilash hamda tarmoqning strategik ustuvor yo'nalishlarini (bemor xavfsizligi, dalilga asoslangan tibbiyot, klinik protokollar, dori vositalari sifati va xavfsizligi, raqamli salomatlik, biotibbiyot va innovatsiyalar) inobatga olgan holda kadrlar salohiyatini uyg'un rivojlantirishdan iborat.

Mazkur tarmoq malaka ramkasi tibbiy malakaviy asoslar, kasbiy standartlar, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'lim standartlari, kasbiy tayyorgarlikni baholash tizimi, sog'liqni saqlash xodimlarining malakasini oshirish tizimi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan sog'liqni saqlash sohasidagi ish beruvchilar va ishchilarning kasbiy birlashmalari, sog'liqni saqlash sohasidagi ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalar, shuningdek, bemorlarni davolashga mo'ljallangan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazlari ishtirokida ishlab chiqilgan.

TMR ta'lim darajalari bo'yicha kasbiy standartlarni va sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislarga muvofiqligini tasdiqlash va malakasini berish tizimini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarmoq malaka ramkasi sog'liqni saqlash tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini muntazam oshirib borish uchun asos hisoblanadi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy vazifalari – profilaktika, diagnostika, davolash, reabilitatsiya va palliativ yordam, dorivor vositalarni ishlab chiqarish (GMP), nazorat-sifat, zaxira va ta'minot zanjiri (GDP/GSP), klinik farmatsiya va farmakonazorat, sanitar-epidemik osoyishtalik, laboratoriya va instrumental diagnostika, jismoniy reabilitatsiya va tibbiy tadqiqotlar kabi kompleks faoliyat turlarini qamrab olgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy va istiqbolli texnologiyalarni inobatga olgan holda xodimlarning funksional harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Sog'liqni saqlash – bu har bir shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash hamda mustahkamlash, uning uzoq va faol umr ko'rishini ta'minlash, jamiyatda sanitariya-gigiyena va epidemiologik barqarorlikka erishishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, madaniy va tibbiy chora-tadbirlar majmuidir;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o‘rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

oilaviy shifokor – har qanday yoshdagi bemorlarga g‘amxo‘rlik qila oladigan va har xil sog‘liq muammolarini hal qila oladigan, bemorlarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarni baholaydigan va tashxis qo‘yadigan, davolash rejalarini tuzadigan va bemorlarni tegishli mutaxassislar yo‘naltiradigan tibbiyot xodimi;

tor soha shifokori – muayyan tibbiyot yo‘nalishida chuqur ixtisoslashgan shifokorlar bo‘lib, ular umumiy shifokor emas, balki aniq kasalliklar yoki organlar sistemasi bilan shug‘ullanadi;

bemor xavfsizligi – tibbiy yordamda zarar xavfini minimallashtirishga qaratilgan tamoyil va amaliyotlar majmuasi;

dalilga asoslangan tibbiyot – klinik qarorlarni eng yaxshi ilmiy dalillar, klinik tajriba va bemor afzalliklari uyg‘unligida qabul qilish;

klinik protokol/klinik yo‘riqnoma – diagnostika, davolash va kuzatuvning standartlashgan tartiblari;

klinik yo‘lak (clinical pathway) – muayyan kasallik bo‘yicha bosqichma-bosqich ko‘ptarmoqli (multidisciplinary) davolash rejasi;

trij – shoshilinch holatlarda bemorlarni holat og‘irligiga ko‘ra ustuvorlikda saralash;

infeksiya nazorati (IPC) – kasalxonalararo/kasbga oid infeksiyalarning oldini olish va boshqarish choralari;

klinik farmatsiya – dori terapiyasini individual bemor darajasida optimallashtirish (dozalash, o‘zaro ta‘sir, nazorat);

dori terapiyasi muammolari (DTP) – dori tanlovi, doza, xavf-foydaga oid kamchiliklar va ularni bartaraf etish jarayoni;

farmakonazorat – dori vositalari xavfsizligini kuzatish, baholash va xatarlarni boshqarish tizimi;

seriyalash va “track & trace” – dori upakovkasini yagona identifikatsiya va harakatini kuzatish tizimi;

laboratoriya xizmatlari – klinik laboratoriyalarda namuna olish, tashish, tahlil va sifat nazorati jarayonlari;

kodlash (ICD, DRG) – kasallik va manipulyatsiyalarni xalqaro klassifikatsiyalar asosida kodlash (hisob-kitob, tahlil, tarif);

raqamli sog‘liqni saqlash – tibbiy ma‘lumot va xizmatlarni raqamli texnologiyalar orqali boshqarish va taqdim etish;

elektron tibbiy yozuv (EMR/EHR) – bemor tibbiy ma'lumotlarining raqamli axborot tizimida yuritilishi;

telemeditsina – masofaviy konsultatsiya, monitoring va diagnostika xizmatlari;

ma'lumotlarni muhofaza qilish – tibbiy ma'lumot maxfiyligi, yaxlitligi va kirish huquqlarini ta'minlash;

ISO 15189 / ISO 13485 – tibbiy laboratoriyalar/meditsina qurilmalar uchun sifat menejmenti standartlari;

klinik ko'rsatkichlar (KPI) – sifat, xavfsizlik va samaradorlikni o'lchovchi indikatorlar;

praktika doirasi (scope of practice) – mutaxassisning malaka va litsenziyasiga mos ravishda amalga oshiradigan klinik funksiyalar chegarasi;

doimiy kasbiy rivojlanish – mutaxassisning bilim va ko'nikmasini uzluksiz yangilab borish.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi 265-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 16-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'lim va ilm-fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarini tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustda "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2021-yil 12-maydagi "Tibbiy faoliyat amalga oshiriladigan tibbiy ixtisosliklar turlari nomenklaturasini tasdiqlash to'g'risida" 3303-son buyrug'iga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Asosiy qisqartmalar.

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT-2.1 – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

GMP – yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (Good Manufacturing Practice);

GDP – yaxshi distribyutorlik amaliyoti (Good Distribution Practice);

GSP —yaxshi saqlash amaliyoti (Good Storage Practice);

GLP – yaxshi Laboratoriya amaliyoti (Good Laboratory Practice);

GCP – yaxshi klinika amaliyoti (Good Clinical Practice);

GPP – yaxshi dorixona amaliyoti (Good pharmacy practice);

CPD – Doimiy kasbiy rivojlanish (Continuing Professional Development);

e-Health – Raqamli sog‘liqni saqlash tizimi;

IT – Axborot texnologiyalari (Information Technology).

SI – Sun‘iy intellekt

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasi – aholining sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish, davolash, reabilitatsiya va palliativ yordam ko'rsatish, shuningdek dori vositalari, tibbiy buyumlar va biotexnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish, nazorat qilish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi strategik tarmoq hisoblanadi.

Ushbu soha odam salomatligini muhofaza qilish, hayot sifati va uzoq umr ko'rishni ta'minlash, epidemiologik barqarorlik va aholi salomatligining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'liqni saqlash tizimiga – davlat va xususiy tibbiy muassasalar, shoshilinch tibbiy yordam xizmati, oilaviy poliklinikalar, ixtisoslashgan klinikalar, laboratoriya-dagnostik markazlar, reabilitatsiya muassasalari, sanitariya-epidemiologiya xizmati hamda profilaktik tibbiyot tashkilotlari kiradi.

Farmatsevtika sohasi esa dori vositalari va tibbiy buyumlarning ishlab chiqarish, nazorat, sertifikatlash, distributsiya va chakana savdosi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni qamrab oladi. U GMP, GDP, GSP, GCP, GPP, CPD va GLP kabi xalqaro "yaxshi amaliyotlar" (GxP) standartlariga asoslanadi.

Sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar – shifokorlar, tibbiyot hamshiralari, dorishunoslar, biotexnologlar, laboratoriya texniklari, klinik farmatsevtlar, radiologlar, epidemiologlar, sanitariya mutaxassislari, tibbiy muhandislar va sog'liqni boshqarish bo'yicha menejerlardan iborat.

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasi faoliyati jahon amaliyotiga mos holda odam huquqlari, xavfsizlik, sifat va axborot maxfiyligi tamoyillariga tayanadi. U raqamli sog'liqni saqlash (e-Health), telemeditsina, biotexnologiya, genomika, farmakonazorat va klinik tadqiqotlar yo'nalishlaridagi innovatsion yechimlarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi: C seksiya – Ishlab chiqaradigan sanoat; G seksiya – Ulgurji va chakana savdo; N seksiya – Professional, ilmiy va texnik faoliyat; R seksiya – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C seksiya – Ishlab chiqaradigan sanoat	21 Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	21.1 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish	21.10 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish	21.10.0 Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish
2			21.2 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish	21.20 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish	21.20.0 Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish
3	G seksiya – Ulgurji va chakana savdo	46 Ulgurji savdo	46.4 Iste'mol uchun mo'ljallangan nooziqovqat tovarlari ulgurji savdosi	46.46 Farmatsevtika va tibbiyot buyumlari ulgurji savdosi	46.46.0 Farmatsevtika va tibbiyot buyumlari ulgurji savdosi
4		47 Chakana savdo	47.7 Avtomobillar va mototsikllardan tashqari boshqa tovarlar chakana savdosi	47.73 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	47.73.0 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi
5	N seksiya – Professional, ilmiy va texnik faoliyat	72 Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	72.1 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar	72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar	72.11.0- 72.19.0 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar
6	R seksiya – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	86 Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat	86.1 Shifoxona muassasalari faoliyati	86.10 Shifoxona tashkilotlari faoliyati	86.10.0 Shifoxona tashkilotlari faoliyati
7			86.2 Shifokorlik amaliyoti va stomatologiya sohasidagi faoliyat	86.21 Shifokorlik amaliyoti va stomatologiya sohasidagi faoliyat	86.21.0 Shifokorlik amaliyoti va stomatologiya sohasidagi faoliyat
8				86.22 Tibbiyot mutaxassislari faoliyati	86.22.0 Tibbiyot mutaxassislari faoliyati
9				86.23 Stomatologiya sohasidagi faoliyat	86.23.0 Stomatologiya sohasidagi faoliyat
10			86.9 Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat	86.91 Diagnostik tasvirlash xizmatlari va tibbiy laboratoriya faoliyati	86.91.0 Diagnostik tasvirlash xizmatlari va tibbiy laboratoriya faoliyati

11				86.92 Bemorni tez yordam mashinasida tashish	86.92.0 Bemorni tez yordam mashinasida tashish
12				86.93 Tibbiyot shifokorlaridan tashqari psixologlar va psixoterapevtlarning faoliyati	86.93.0 Tibbiyot shifokorlaridan tashqari psixologlar va psixoterapevtlarning faoliyati
13				86.94 Hamshiralik va akusherlik faoliyati	86.94.0 Hamshiralik va akusherlik faoliyati
14				86.95 Fizioterapiya tadbirlari	86.95.0 Fizioterapiya tadbirlari
15				86.96 An'anaviy, qo'shimcha va muqobil tibbiyot faoliyati	86.96.0 An'anaviy, qo'shimcha va muqobil tibbiyot faoliyati
16				86.97 Tibbiy, stomatologik va boshqa odam salomatligi xizmatlari uchun vositachilik xizmati faoliyati	86.97.0 Tibbiy, stomatologik va boshqa odam salomatligi xizmatlari uchun vositachilik xizmati faoliyati
17				86.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat	86.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2.	13420	Sog'liqni saqlash sohasida tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha bo'linmalar rahbarlari
3.	22110	Umumiy amaliyot shifokorlari
4.	22120	Shifokorlar
5.	22210	Tibbiy parvarishlash ishi bo'yicha professional-mutaxassislar
6.	22220	Akusherlik bo'yicha professional-mutaxassislar

7.	22300	Yuqori malakali tabiblar, an'anaviy va noan'anaviy tibbiyotning amaliyotchilari
8.	22400	Amaliyotchi paramediklar
9.	22610	Shifokor-stomatologlar
10.	22621	Farmatsevtika sohasida professional-mutaxassislar
11.	22622	Dori vositalar va tibbiy buyumlar savdosi sohasida professional-mutaxassislar
12.	22631	Jamoat salomatligi sohasidagi shifokorlar
13.	22632	Sanitariya-epidemiologiya xizmati shifokorlari va professional-mutaxassislar
14.	22639	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan mehnatni muhofaza qilish va odam atrof-muhitining tibbiy jihatlar bo'yicha shifokorlar va professional-mutaxassislar, b.g.k.
15.	22641	Shifokor-fizioterapevt va jismoniy reabilitatsiya bo'yicha professional-mutaxassislar
16.	22642	Tibbiy reabilitatsiya sohasidagi shifokorlar
17.	22650	Shifokor-diyetologlar va ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish bo'yicha professional-mutaxassislar
18.	22660	Shifokor-audiologlar va nutqni rivojlantirish hamda tiklash bo'yicha professional-mutaxassislar
19.	22670	Shifokor-oftalmologlar, optiklar va optometristlar
20.	22690	Boshqa shifokorlar va professional-mutaxassislar, b.g.k.
21.	32111	Radiologiya va tibbiy tasvir olish texniklari
22.	32112	Yurak va nevrologiya diagnostikasi bilan bog'liq texniklar
23.	32119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan tibbiyot qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texniklar, b.g.k.
24.	32120	Klinik-diagnostika (tibbiy) va patologiya laboratoriyalarining laboratoriya-feldsherlari
25.	32130	Farmatsevtlar
26.	32141	Tish texniklari
27.	32142	Protezchi-texniklar
28.	32210	Hamshiralik bo'yicha yordamchi xodimlar
29.	32220	Akusherlik bo'yicha yordamchi xodimlar
30.	32300	Yuqori malakali tabiblar va an'anaviy hamda alternativ tibbiyotning amaliyotchilari
31.	32510	Tish feldsherlari
32.	32520	Tibbiy ro'yxatga oluvchilar va tibbiy ma'lumotlar bo'yicha mutaxassislar
33.	32530	Umumiy amaliyot feldsherlari
34.	32540	Optiklar va optometristlar
35.	32550	Fizioterapiya yordamchi xodimlari va mutaxassislari
36.	32560	Ambulator-poliklinika ishlari bo'yicha shifokor yordamchilari
37.	32570	Mehnatni muhofaza qilish va atrof muhitni muhofaza qilishning tibbiy jihatlar bo'yicha mutaxassislar va inspektorlar
38.	32580	Tez tibbiy yordam sohasida yordamchi xodimlar
39.	32590	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan yordamchi tibbiyot xodimlari, b.g.k.

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillarda amalga oshirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari orasida sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasini modernizatsiya qilish markaziy o'rinlardan birini egallayapti. 2020-2026 yillar oralig'i mamlakat tibbiyot tizimi uchun nafaqat pandemiya sinovlaridan o'tish, balki butunlay yangi boshqaruv va kadrlar tayyorlash modeliga o'tish davri bo'lib xizmat qilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan odam kapitalini rivojlantirish maqsadlari tibbiyot xodimlarining nufuzini oshirish, ularning malakasini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli tibbiyotni joriy etishni nazarda tutadi.

Sohalardagi infratuzilma tarmoqlar holati.

Respublikamiz sog'liqni saqlash tizimining bugungi infratuzilmasi aholiga har tomonlama sifatli va manzilli tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lib, jami 10 288 ta davlat tibbiyot tashkilotini o'z ichiga olgan yaxlit majmuadan iboratdir. Ushbu tizimning poydevorini 8 107 ta oilaviy ambulator poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlari tashkil etib, ular sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini sifatida kasalliklarning oldini olish, erta aniqlash va mahalla darajasidagi patronaj xizmatlarini ta'minlaydi.

Tuman va shahar miqyosida ixtisoslashtirilgan diagnostika jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda tor soha mutaxassislari ko'rigini tashkil etishda 209 ta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika tayanch bo'linmalar bo'lib xizmat qilmoqda. Statsionar sharoitda yuqori texnologik operatsiyalar va murakkab muolajalarni amalga oshirishga ixtisoslashgan 1 972 ta shifoxona esa tizimning yuqori bo'g'ini sifatida faoliyat yuritmoqda.

Sog'liqni saqlash muassasalarini IT infratuzilmasi va internet aloqasi bilan ta'minlash ishlari yakunlanmoqda, tibbiy axborot tizimlari joriy etilmoqda, jumladan:

DMED axborot tizimi ishga tushirilib bugungi kunda, 36 million fuqarolarni elektron tibbiy kartasi shakllantirildi. 2571 ta birlamchi tibbiy muassasalardan 2475 tasida tizim joriy qilindi.

Shuningdek, hududlarda "Elektron retsept" moduli ishlab chiqilib, hududlarda joriy etildi. Bu esa, retsept asosida dorini markirovka qilgan holda sotish imkonini berib, bemorlarga mobil ilova orqali o'z retseptlarini kuzatish imkoniyatini beradi.

Yangi texnologiyalar, xalqaro tendensiyalar:

2025-yilda tibbiyot sohasidagi xalqaro tendensiyalar va yangi texnologiyalar sog'liqni saqlash tizimini tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekistonda tibbiyot sohasida raqamlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda jumladan tibbiyot sohasida ham Sun'iy intellekt (SI) va generativ SI rivojlanib bormoqda. Jumladan, diagnostika va ma'muriy jarayonlarda SI texnologiyalari va generativ SI, tibbiyot xodimlarining ish yukini kamaytirish va bemorlar bilan muloqotni yaxshilashda yordam beradi.

Masalan, Philips kompaniyasi SI yordamida MRT va KT skanerlarini takomillashtirmoqda, bu esa diagnostika tezligi va aniqligini oshiradi. Shuningdek, Nevrologiya va onkologik sohalarda ham miya va saraton kasalliklarini erta aniqlash va davolashda muhim rol o'ynaydi.

Robotlashtirilgan jarrohlik va smart shifoxonalar bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, Angliyaning NHS tizimida robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari joriy etilmoqda, bu esa jarrohlik amaliyotida aniqligini oshiradi va bemorlarning tiklanish muddatini qisqartiradi.

Smart shifoxonalar: SI, IoT va 5G texnologiyalari bilan jihozlangan smart shifoxonalar bemorlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va operatsiya samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tele-tibbiyot va masofaviy monitoring: COVID-19 pandemiyasi davrida keng tarqalgan tele-tibbiyot xizmatlari hozirda ham ahamiyatli bo'lib, bemorlarga uydan chiqmasdan tibbiy maslahat olish imkonini beradi. Masofaviy monitoring, bemorlarning holatini masofadan kuzatish texnologiyalari, ayniqsa, surunkali kasalliklarni boshqarishda samarali bo'lib, shoshilinch holatlarni erta aniqlash imkonini beradi.

Biokonvergensiya va regenerativ tibbiyot: Biologiya, muhandislik va SI sohalarining birlashishi natijasida "organ-on-chip", nanorobotlar va individuallashtirilgan dori vositalari kabi yangi texnologiyalar yaratilmoqda.

Regenerativ tibbiyot: Genetik muhandislik orqali o'zak hujayralar va to'qimalarni qayta tiklash hamda shikastlangan organlarni davolash imkoniyatlari kengaymoqda.

Kiyiladigan qurilmalar va biosensorlar: Qondagi qand miqdori, yurak urishi, stress darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni kuzatish imkonini beradigan qurilmalar sog'liqni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Farmatsevtik ma'lumotlar: Iqtisodiyot va aholi salomatligida muhim o'rin tutadigan bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratib berilmoqda.

Prezident qaroriga muvofiq, 2024-2025-yillarda farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini jadallashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Ushbu, qabul qilingan farmonda farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, sohadagi yangi loyihalar uchun 100 million dollar resurs ajratildi.

Bundan tashqari, qo'shimcha 200 million dollar jalb qilinib natijasida 30,5 million dollarlik ikkita loyiha ishga tushirildi. 160 ta ish o'rne yaratilgan.

1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 51 million dollarlik eksport qilingan. 450 turdagi yangi mahsulotni mahalliyashtirish mo'ljallangan. "Tashkent Pharma Park" innovatsion farmatsevtika klasteri faoliyatini tashkil etilib, 470 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirilishi kutilmoqda.

2017-2024-yillarda O'zbekiston farmatsevtika bozori hajmi 1,8 baravarga oshib, 2 mlrd doll.ni tashkil etdi. Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmi 1,8 baravarga o'sib, 2024-yil yakunida 4,7 trln so'mni tashkil etdi. Xususan, dori vositalari ishlab chiqarish 1,5 baravarga, tibbiy jihozlar ishlab chiqarish esa 3 baravarga ko'paydi. Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahalliy farmatsevtika mahsulotlari soni 2 777 taga yetdi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar soni 2017-yildagi 146 tadan 2024-yilda 202 taga yetdi. Ulardan 61 tasi dori-darmon vositalari, 38 tasi tibbiy uskunalari, 103 tasi esa tibbiy buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish orqali sohaning ichki ehtiyojlarni qondirish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Mahalliy mahsulotlar hisobiga ichki talabni qoplash darajasi 32% dan 42%ga yetdi.

2017–2024-yillar davomida farmatsevtika sohasiga kiritilgan umumiy investitsiyalar hajmi 6 baravarga o'sib, 2024-yilda 310 mln dollarni tashkil etdi. Bundan 158 mln dollar to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalar hisoblanadi. Ushbu mablag'lar zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va sifat nazorati tizimini takomillashtirish, yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirildi.

Xususan, 2024-yilda tarmoqda qiymati 92 mln dollarlik 28 ta loyihalar amalga oshirildi, 800 mlrd so'mlik qo'shimcha ishlab chiqarish hajmlari va 1400 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Eksport salohiyati ham sezilarli darajada kengaydi. Agar 2017-yilda farmatsevtika mahsulotlari eksporti 18,3 mln doll. bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 9 baravarga oshib, 165 million dollarga yetdi. Xalqaro hamkorlik geografiyasi kengayib, 50 ta xorij davlatlariga farmatsevtika mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi. Bunday aloqalar milliy mahsulotning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yanada mustahkamladi.

Ishlab chiqarishda sifat va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha korxonalarga GMP (*Good Manufacturing Practice*) sertifikatini talabi qo'yildi. 2020-yilda 10 ta korxona GMP talablariga javob bergan bo'lsa, Bugungi kunda ularning soni 61 taga yetdi. Hozirda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalarining 100%da GMP sertifikatlari mavjud. Shuningdek, ISO 9001:2015 standarti bo'yicha sertifikatlangan korxonalar soni 74 foizga o'sib, 59 taga yetdi.

Tibbiy xodimlar va tibbiy ta'lim:

Bugungi kunda sohada 82 823 nafar shifokorlar va 296112 nafar o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatmoqda, shu jumladan malaka toifasiga ega shifokorlar 40 841 nafar (49,3%) (oliy-24 724 nafar, birinchi-8 469 nafar, ikkinchi-7 648 nafar)ni tashkil etadi.

O'rta tibbiyot xodimlari esa – 129 571 nafar (41,7%) (oliy-74 229 nafar, birinchi-25 675 nafar, ikkinchi-29 667 nafar)ni tashkil etmoqda.

Sohaning kadrlar salohiyatini shakllantirishda oliy ta'lim tizimi strategik ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda respublikada 9 ta davlat tibbiyot oliy ta'lim muassasasi, xususan 2 ta tibbiyot universiteti, 7 ta tibbiyot instituti hamda 2 ta mahalliy filial faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu muassasalar bilan bir qatorda,

mutaxassislar tayyorlash jarayoniga xalqaro ta'lim tajribasi ham faol jalb etilgan bo'lib, N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali (qurilish ishlari davom etmoqda) va Qozon davlat universitetining Jizzax shahridagi filiali ushbu tizimning uzviy qismi hisoblanadi. Mazkur oliy ta'lim maskanlarida jami 1–6 kurslar kesimida 70 618 nafar talaba tahsil olayotganligi tarmoqning kadrlar zaxirasini 2030-yilgacha bo'lgan ehtiyoj prognozi asosida barqaror to'ldirib borish imkonini beradi.

T/r	Ta'lim bosqichlari	Mutaxassislik soni	Talabalar soni	O'quv yili muddati
1	Bakalavriat ta'lim	8	69 273	4-6 yil
2	Magistratura	60	1 708	2-3 yil
3	Klinik ordinatura	65	2943	2-3 yil
4	Internatura	20	1436	1 yil

Shuningdek, tizimda oliy ma'lumotli hamshiralarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda 9 ta oliy ta'lim muassasasida zamonaviy 4 yillik o'quv rejalari asosida 477 nafar oliy malakali hamshira tahsil olayotganligi sohada kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashga xizmat qiladi. Tibbiy ta'limning xalqaro miqyosdagi nufuzi va jozibadorligi natijasida Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, Hindiston, Pokiston, AQSH, Koreya va Isroil kabi 30 dan ziyod xorijiy davlatlardan 9 107 nafar talabaning jalb etilganligi milliy ta'lim tizimining xalqaro e'tirofga sazovor bo'lganligini tasdiqlaydi.

Yurtimizning 2550 nafar talaba yoshlari Rossiya, Koreya, Germaniya, Belorussiya, Turkiya, Ukraina, Hindiston, Italiya, Xitoy, Polsha davlatlarining 25 ta universitetlari bilan (12 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 14 ta magistratura va 11 ta klinik ordinatura) mutaxassisliklari bo'yicha xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olmoqda.

Shu bilan birga, sohada kadrlar tayyorlash sifati va ilmiy faoliyat samaradorligi bevosita professor-o'qituvchilar tarkibiga bog'liq bo'lib, hozirda 9 ta tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalarida jami 5 090 nafar professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning ilmiy salohiyati o'rtacha 45,2 foizni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich tarkibida 1 370 nafar fan nomzodi va 1 133 nafar fan doktori mavjudligi sohaning mustahkam akademik poydevorga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash yo'nalishida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, 72 ta tibbiyot texnikumida jami 66 175 nafar o'quvchi tibbiyot va farmatsevtika mutaxassisliklari bo'yicha o'rta maxsus ma'lumot olmoqda. Mazkur kadrlar salohiyati 2030-yilgacha belgilangan strategik maqsadlar va kadrlar prognozi doirasida tarmoqning barcha darajalarini malakali mutaxassislar bilan to'ldirish imkonini beradi. Kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablaridan kelib chiqib, 2026-yildan boshlab o'quv jarayoniga robot-simulyatorli va masofaviy ta'lim usullarini keng joriy etish orqali professor-o'qituvchilar va

o'quvchilarning texnologik kompetensiyalarini muntazam oshirib borish ko'zda tutilmoqda.

2025-yilda, respublikadagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi bandlik holati yuzasidan o'tkazilgan tahlillar sohadagi kadrlar salohiyatining real ko'rinishini aks ettiradi. Hisobot davrida jami bitiruvchilar soni 11 482 nafarni tashkil etib, ularning 10 045 nafari yoki 87,5 foizi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'z bandligini ta'minlagan. Bandlikning tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy qism, ya'ni 6 568 nafar (57,2 foiz) mutaxassis "YAMMT" IDAK tizimida ro'yxatdan o'tgan holda doimiy ish joylariga joylashtirilgan. Shu bilan birga, sohada uzluksiz ta'lim olish tendensiyasi yuqori bo'lib, 2 859 nafar (24,9 foiz) bitiruvchi o'z malakasini oshirish maqsadida ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirmoqda.


Kadrlar tayyorlash tizimidagi zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lgan mustaqil faoliyat yuritish ko'rsatkichlari ham sezilarli bo'lib, 459 nafar bitiruvchi o'zini o'zi band qilganlar sifatida qayd etilgan, yana 125 nafari esa tadbirkorlik faoliyatiga bevosita jalb etilgan. Ta'kidlash joizki, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ushbu bitiruvchilarning 80 nafariga bank muassasalari tomonidan tegishli kredit mablag'lari ajratilgan. Ijtimoiy himoya va demografik omillar ham ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan bo'lib, 509 nafar bitiruvchi hozirgi kunda ikki yoshgacha bo'lgan farzand parvarishi bilan band. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, xorijga chiqib ketgan mutaxassislar soni jami bitiruvchilarga nisbatan minimal darajani, ya'ni 15 nafarni tashkil etadi.

Muassasalar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, kadrlarni yetkazib berishda Toshkent davlat tibbiyot universiteti (3 492 nafar) va Andijon davlat tibbiyot instituti (1 940 nafar) eng yirik ulushga ega. Shu bilan birga, Urganch davlat tibbiyot institutida bitiruvchilarning yarmidan ko'pi (51,8 foiz) ta'limni davom ettirish yo'lini tanlagan bo'lsa, Toshkent farmatsevtika instituti bitiruvchilari orasida o'zini o'zi band qilish ko'rsatkichi boshqa muassasalarga nisbatan yuqori (21,8 foiz) ekanligi kuzatildi. Hozirgi kunda soha bo'yicha ishga joylashishga muhtojlar 928 nafarni tashkil etmoqda, biroq tahlil qilinayotgan barcha 11 482 nafar bitiruvchi orasida mehnat qilish istagi bo'lmagan yoki faoliyatini xohlamaydigan kontingentning mavjud emasligi mutaxassislarning mehnat bozoridagi yuqori faolligini tasdiqlaydi. Ushbu raqamlar tarmoqdagi kadrlar oqimi va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish uchun asosiy faktik ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.


Mazkur 72 ta tibbiyot texnikumida ta'lim sifatini bevosita ta'minlashda asosiy shtatda faoliyat yuritayotgan 3 796 nafar pedagog tarkibi muhim o'rin tutadi. Ularning umumiy salohiyati tahlil qilinganda, malaka toifasiga ega bo'lganlar 45,8 foizni, tizimning ilmiy salohiyati esa 1,0 foizni tashkil etishi kuzatiladi. Pedagogik tarkib tarkibida 6 nafar fan doktori (DSc) hamda 32 nafar fan nomzodi (PhD) mavjudligi o'rta bo'g'in mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ilmiy-metodik yondashuvni saqlab qolish imkonini beradi. Ta'lim tizimining xalqaro talablarga

integratsiyalashuvi doirasida 124 nafar pedagog dars mashg'ulotlarini chet tillarida olib borayotganligi e'tiborga molik bo'lib, ularning 71 nafari chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarga ega.

O'quv yo'nalishlari ikki va uch yillikni tashkil etib, ikki yillik tahsilda tibbiy profilaktika ishi, tibbiy ijtimoiy ish va patronaj hamshira yo'nalishi (1-rasm), uch yillik yo'nalishda Hamshiralik ishi, Feldsherlik, Laboratoriya ishi, Farmakologiya va Stomatologiya yo'nalishlari mavjud (2- rasm).



1-rasm. O'quv yo'nalishlari.



2-rasm. O'quv yo'nalishlari.

Ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash maqsadida texnikum bitiruvchilari uchun tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining tegishli bakalavriat yo'nalishlariga suhbat asosida 2-kursdan o'qishga qabul qilinish imkoniyati yaratilganligi malaka darajalari o'rtasidagi vertikal mobillikni yanada mustahkamlaydi. Kadrlar salohiyatini muntazam oshirib borish va ularni qayta tayyorlash maqsadida hozirgi kunda respublikada jami 75 ta ixtisoslashtirilgan muassasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tizimning markaziy bo'g'inini Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi hamda uning 5 ta filiali, shuningdek, Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'zining 13 ta filiali bilan shakllantiradi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari qoshidagi 11 ta markaz, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinikalar tarkibidagi 23 ta bo'linma hamda viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari

qoshidagi 21 ta muassasada mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonlari uzluksiz amalga oshirilmoqda.

Ushbu muassasalarda jami 2 ming 955 ta malaka oshirish hamda 986 ta qayta tayyorlash kurslari o'qitilmoqda.

Har yili o'rtacha 115 ming nafar xodimlar malaka oshirish kurslarida va 19 ming nafar xodimlar mutaxassisliklar bo'yicha qayta tayyorlashdan o'tmoqdalar.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish "O'zbekiston – 2030" O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda 2018-yilda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari 2017-2023-yillarda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari bo'yicha o'tkazgan tahlilga ko'ra, 2017-2023-yillarda davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratilayotgan xarajatlar qariyb 3 barobar oshdi. Agar xarajatlar 2017-yilda 7 330 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 27 047,8 milliard so'mga yetdi. Shunday qilib, 2023-yilda davlat byudjeti xarajatlaridagi ulush 12,7 foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 2023-yilda 2017-yildagiga nisbatan 1,8 barobar o'sdi va 10 ming 547 tani tashkil etdi.

2017-yilda xususiy tibbiyot muassasalari soni 4000 ta edi, bugun esa ularning soni 7 ming 320 ta. Ularning 5 ming 823 tasi ambulator, 1 ming 497 tasi statsionardir. Natijada ko'rsatilayotgan sog'liqni saqlash xizmatlarining umumiy hajmi 3,8 marotaba oshdi.

Ushbu davrda aholi o'rtasida yangi kasallanish holatlari kamaygan (3-rasm). Xususan:

- sil kasalligi (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 44,9 nafardan 2023-yilda 35,9 nafargacha;

- gepatit B (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 0,8 nafardan 2023-yilda 0,3 nafargacha;


- 2-toifa qandli diabet (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 21,4 nafardan 2023-yilda 18,3 nafargacha.

Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 2017-yildagi 73,7 yoshdan 2023-yilda 73,8 yoshga ko'tarilib, quyidagi ko'rsatkichlar yaxshilandi:

- onalar o'limi koeffitsiyenti (har 100 000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa) 2017-yildagi 21 nafardan 2023-yilda 14,4 nafargacha kamaydi;

- 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsiyenti 2017-yildagi 15,4 nafardan 2023-yilda 12,3 nafargacha kamaydi;

- aholi o'rtasida o'z joniga qasd qilish tufayli hayotdan ko'z yumish ko'rsatkichi (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 7,5 nafardan 2023-yilda 6,4 nafargacha kamaydi.



3-rasm. 2017-2023 yillardagi kasalliklar.

O'zbekistonda yil sayin jadal rivojlanayotgan tibbiyot turizmining rivojlanishi sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning sezilarli natijasi bo'ldi. 2017-yilda O'zbekistonga davolanish maqsadida kelgan sayyohlar soni 28 ming 705 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 69 ming 984 nafarni tashkil etmoqda. Masalan, Samarqand shahrida 8 ta yirik mehmonxonani o'z ichiga olgan yirik turistik klaster (kurort tipidagi mehmonxona) tashkil etildi. Ulardan biri yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatadigan kurort tipidagi mehmonxona.

2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi»da mamlakatimiz tibbiyot tashkilotlarining turizm salohiyatini tubdan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Davlatimiz rahbari barcha islohotlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

Keyingi ikki yilda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 9 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ular soni 25 taga yetdi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida hududlarda ularning filiallari ish boshladi.

Shunday qilib, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'rtacha umr ko'rish davomiyligining yaxshilanishi, onalar va bolalar o'limining, shuningdek, aholi o'rtasida yangi kasallanish holatlarining kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh etish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va tibbiyot turizmining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasining kelgusidagi rejalari: Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya instituti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi.

Unga ko'ra o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilib, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlar va innovatsion o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, klinikalar va o'quv bazalari faoliyatida nazariy bilim hamda amaliyotning uyg'unligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Universitet faoliyatini takomillashtirish va ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Universitet huzurida Transformatsiya ofisi tashkil etiladi.

Shuningdek aholiga birlamchi tibbiy xizmatni Turkiya tajribasidan kelib chiqib unga ko'ra, tibbiy xizmatlar Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida oilaviy shifokor yoki tibbiyot brigadasiga murojaat qilish orqali bepul ko'rsatiladi.

"Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" modullari joriy etiladi. Mazkur axborot tizimlarida ambulator tibbiyot muassasalarida aholini oilaviy shifokorga biriktirish, onlayn qabulga yozish, qabullarni amalga oshirish jurnallarini yuritishni elektron shaklga o'tkazish, oilaviy shifokordan tor doiradagi mutaxassisga va shifoxonalarga elektron yo'llanmalar berish yo'lga qo'yiladi.

Oilaviy shifokor, jumladan xususiy shifokor va biriktirilgan oilalar o'rtasida elektron bitim tuzish joriy etiladi, bunda bitimni oilalar tomonidan imzolash SMS xabarnomani tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlarini o'qitish va o'qitish yakunlari bo'yicha bilimlarini baholashda shaffoflikni ta'minlash maqsadida ularni o'qitish va baholash alohida-alohida tizimlarda amalga oshiriladi.

Mutaxassislar simulyatsion markazlarda amaliy ko'nikmalarni baholash tashkil etiladi. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan tibbiyot xodimlariga sertifikatlar beriladi hamda 2030-yildan boshlab sertifikatga ega bo'lmagan shifokorlar oilaviy shifokor sifatida faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash sohasi ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj jahon tendensiyalari hamda mahalliy ehtiyojlarga qarab tez fursatda o'zgarib bormoqda.

Jumladan, 2024-2025-yillar uchun sog'liqni saqlash sohasida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoji yuqori talablarga ega bo'lib qolayotgan kasblar hamon birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish bo'yicha oilaviy shifokorlar, laborant vrachlar, tibbiy IT mutaxassislari hamda fizioterapevtlar va rehabilitolog mutaxassislarni tashkil etmoqda.

Farmatsevtika tarmog'idagi transformatsiya jarayonlari sohadagi iqtisodiy samaradorlik va aholi uchun dori vositalari ochiqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, 2026-yil 1-yanvardan boshlab 2,6 ming turdagi retseptli dori vositalari narxining o'rtacha 40–50 foizga pasayishi kutilmoqda. Shifoxonalarda sifatsiz mahsulotlar xaridi va korrupsion holatlarni bartaraf etish maqsadida endilikda barcha davlat xaridlari "farma.xarid.uz" maxsus elektron tizimi orqali amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, unda faqat ishlab chiqarish va yetkazib berish

xavfsizligiga oid GMP, ISO:13485 hamda GDP kabi xalqaro sertifikatlarga ega ishtirokchilar qatnashishi tartibi joriy etiladi.

Davlat xaridlari hajmlari, tegishli sertifikatlarga ega ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar reyestri jamoatchilik uchun to'liq ochiq bo'lishi hamda xarid jarayonida tovar narxlarining belgilangan referent narxlardan yuqori bo'lmashligi elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda nazorat qilinishi tizim shaffofligini ta'minlaydi. Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan davlat tibbiyot muassasalarida dori vositalari va tibbiy jihozlar ehtiyojlarini shakllantirish hamda mavjud qoldiqlarni samarali boshqarish bo'yicha maxsus raqamli platforma yaratish vazifasi qo'yilgan. Aholini xavfsiz va samarali dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishning yangilangan tartibi taqdim etildi, unda texnologiyalar transferi asosida mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va xorijiy kompaniyalarga mahalliy quvvatlardan foydalangan holda tezlashtirilgan tartibda mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Sohaning innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida biotibbiy hujayra mahsulotlari, shikastlangan to'qimalarni davolash va organizm funksiyalarini yaxshilashga qaratilgan yangi turdagi dori vositalarini tibbiyot amaliyotiga joriy etish imkoniyati belgilandi. Shu bilan birga, "djenerik" dori vositalarining klinik sinovlari xalqaro standartlar asosida amalga oshirilib, ularni ro'yxatdan o'tkazish muddatlari qisqartirilishi ko'zda tutilgan. Xavfsizlik klassifikatsiyasi bo'yicha 1-sinfga mansub bo'lgan, steril bo'lmagan va invaziv bo'lmagan tibbiy jihozlar laboratoriya hamda klinik sinovlarsiz ro'yxatdan o'tkazilishi tizim operativligini oshiradi. Mazkur chora-tadbirlar 2026-yil yakuniga qadar farmatsevtika sohasida 166 million dollar qiymatidagi 32 ta investitsiya loyihasini ishga tushirish hamda 1 500 ta yangi ish o'rnini yaratish bilan hamohang ravishda amalga oshiriladi. Ushbu strategik o'zgarishlar Tarmoq malaka ramkasi (TMR) doirasida "Sifat nazorati inspektori", "Xalqaro standartlar bo'yicha auditor (GMP/GDP)" va "Raqamli xaridlar menejeri" kabi yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni malaka talablariga integratsiya qilishni taqozo etadi

Tarmoqda paydo bo'layotgan yangi kasblar.

Yangi davrning tibbiyot sohasida texnologiyalar, sun'iy intellekt va bioinjeneriya jadal rivojlanayotgani sababli, yaqin kelajakda quyidagi yangi kasblar paydo bo'lishi yoki jadal tarqalishi kutilmoqda:

1. Tibbiy sun'iy intellekt mutaxassisi (SI Medical Specialist)

Sun'iy intellekt (SI) yordamida diagnoz qo'yish, suratlarni tahlil qilish, ma'lumotlardan xulosa chiqarish kabi qulayliklarni yaratilishi. Mashinali o'rganish modellarini tibbiyotda to'g'ri qo'llash.

2. Personallashtirilgan tibbiyot maslahatchisi (Personalized Medicine Consultant)

Genom tahlili orqali har bir bemorga mos keladigan dori-darmon yoki davo usulini tavsiya qiladi. Farmakogenetika va individual muolaja yuzasidan maslahat beradi.

3. Bioinjener-implant mutaxassisi

Organlar o'rnini bosuvchi sun'iy implantlar, bioprinting (3D-printerda organlar yaratish) sohasida ishlaydi. Kiber-organlar va neyroimplantlar ustida ishlaydi.

4. Robotlashtirilgan xirurgiya injeneri

Robot-xirurgiya tizimlarini sozlaydi, nazorat qiladi va amaliyot jarayonida ishtirok etadi. Xirurgiyada yuqori aniqlikka erishish uchun robototexnika va dasturlash sohalarini bilgan mutaxassis.

5. Tibbiy telekommunikatsiya koordinatori (Telehealth Coordinator)

Onlayn tibbiy xizmatlarni tashkil etish: video-qabullar, masofaviy diagnostika, raqamli monitoring. Qurilmalar, platformalar va bemor-muttaxassis aloqasini ta'minlash.

6. Raqamli qarish mutaxassisi (Digital Aging Specialist)

Yoshi katta odamlar uchun raqamli salomatlik nazoratini yo'lga qo'yadi. Aqlli sensorlar, fitnes-trekerlar va SI orqali qarish jarayonini nazorat qiladi.

7. Tibbiy ma'lumotlar tahlilchisi (Medical Data Analyst / Health Data Scientist)

Elektron tibbiy tarixlar, laboratoriya natijalari va SI ma'lumotlarini tahlil qilib, qaror qabul qilishga yordam beradi.

Farmatsevtika sohasida texnologiyalar, raqamli platformalar, biofarma va sun'iy intellekt tez sur'atlarda rivojlanayotgani tufayli quyidagi kasblar yaqin kelajakda yangi yo'nalish sifatida shakllanishi yoki jadal ommalashishi kutilmoqda:

1. Farmatsevtik sun'iy intellekt mutaxassisi (Pharma AI Specialist)

Dori yaratish jarayonlarida sun'iy intellekt modellarini qo'llash, molekulalarni prognoz qilish, klinik ma'lumotlarni tahlil qilish va dori nomzodlarini tezkor saralash bilan shug'ullanadi.

2. Personallashtirilgan farmakoterapiya maslahatchisi (Personalized Pharmacotherapy Consultant).

Genom tahlili asosida har bir bemor uchun individual dori dozasi va dori tanlovini belgilaydi. Farmakogenetika bo'yicha maslahat beradi.

4. Farmatsevtik robototexnika injeneri (Pharmaceutical Robotics Engineer)

Ishlab chiqarish sexlarida robotlashtirilgan tizimlar, avtomatlashtirilgan fasovka, inspeksiya va logistika uskunalarini boshqaradi, optimallashtiradi.

5. Dori ixtirosida mashinali o'rganish mutaxassisi (Drug Discovery ML Scientist)

Algoritmlar yordamida yangi molekulalarni topish, faollikni bashorat qilish, klinik sinovlar natijalarini modellashtirish bilan shug'ullanadi.

6. Raqamli klinik sinovlar koordinatori (Digital Clinical Trial Coordinator)

Klinik sinovlarni masofaviy formatda tashkil yetadi, elektron ma'lumotlar bazalarini boshqaradi, sensorlar va telemeditsinadan kelayotgan ma'lumotlarni monitoring qiladi.

7. Regulyator raqamlashtirish mutaxassisi (Regulatory Digitalization Specialist)

Dori va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron platformalarda regulyator standartlarini tatbiq etish, ma'lumotlar sifatini nazorat qiladi.

8. Bioprinting-formulyatsiya mutaxassisi (3D Bio-printing Formulation Specialist)

3D-bioprinterlarda dori tashish tizimlari, to'qima regeneratsiyasi uchun materiallar, bioimplantlar va personallashtirilgan dorilarni yaratish bilan shug'ullanadi.

9. Aqlli dorilar muhandisi (Smart Drug Systems Engineer)

Mikrochipli tabletkalar, monitoring funksiyasiga ega intellektual dozlash qurilmalari, sensorli paketlash texnologiyalarini ishlab chiqadi.

10. Ekologik farmatsevtika mutaxassisi (Eco-Pharma Sustainability Specialist)
Dorilarning ekologik xavfini baholaydi, "yashil farmatsevtika" standartlarini joriy qiladi, chiqindilar va biologik xavflarni ekologik norma asosida boshqaradi.

Tarmoqda yo'q bo'lib borayotgan kasblar.

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli transformatsiya va xalqaro standartlar joriy etilishi natijasida an'anaviy mehnat turlariga asoslangan qator kasblar bosqichma-bosqich yo'qolib bormoqda. Bu jarayon sohadagi funksional vazifalarning qayta taqsimlanishi, avtomatlashtirish va texnologik yechimlarning keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tibbiy ro'yxatchi (qog'oz arxivda ma'lumot kirituvchi xodim) – elektron tibbiy yozuvlar (EHR) va raqamli ma'lumot bazalari joriy etilgandan so'ng, qo'lda ma'lumot kiritish va qog'oz hujjat aylanmasi deyarli talab etilmaydi.

Feldsher-laborant – laboratoriya tahlillari avtomat tizimlar orqali bajarilayotgani sababli, qo'lda namuna tekshirish va hisoblash amaliyoti faoliyatda o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Sanitar shifokor – sanitariya nazorati faoliyati jamoat salomatligi, epidemiologiya va infeksiya nazorati sohalariga integratsiya qilingani tufayli alohida kasb sifatida qisqarib bormoqda.

Farmatsevt-dispenser (qo'lda dori tarqatuvchi) – dori vositalari harakati elektron retsept va avtomatlashtirilgan distributsiya tizimlariga o'tgani sababli, qo'lda hisoblash va dori chiqarish amaliyoti talab etilmaydi.

Tibbiy statist (qo'l bilan hisob yurituvchi) – tibbiy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash jarayonlari axborot tizimlari va raqamli tahlil platformalari orqali avtomatlashtirilgan.

Sanitar (dezinfeksiya ishlarini qo'lda bajaruvchi) – tibbiy muassasalarda avtomatlashtirilgan sterilizatsiya uskunalari va infeksiya nazorati protokollari joriy etilgani tufayli qo'lda dezinfeksiya qilish amaliyoti talabdan chiqmoqda.

Manual terapevt yoki an'anaviy tabobat amaliyotchisi (litsenziyasiz) – tibbiy amaliyotda dalilga asoslangan yondashuv ustuvor bo'lgani sababli, litsenziyasiz an'anaviy usullarda faoliyat yuritish cheklanmoqda.

Arxiv xodimi (qog'oz tibbiy hujjat saqlovchi) – tibbiy ma'lumotlarni elektron arxivlarda saqlash tizimlari joriy etilgandan keyin qog'oz arxivlarga ehtiyoj kamaydi.

Tish feldsheri – stomatologiya sohasi to'liq professionallashtirish sababli, bu kasbni vrach-stomatologlar va tish texnikasi mutaxassislari almashtirmoqda.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi.

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
Sog'liqni saqlash sohasiga tegishli lavozim va kasblar nomi		
1.	11200036	Sog'liqni saqlash muassasasi direktori va o'rinbosarlari
2.	13420001	Ambulatoriya (klinika, poliklinika) mudiri
3.	13420002	Bosh hamshira (bosh shifokorning hamshiralari ishi bo'yicha o'rinbosari)
4.	13420003	Davlat sanitar-epidemiologiya xizmati tashkiloti bosh shifokori (bosh davlat sanitar shifokori)
5.	13420004	Hamshiralik ishi bo'yicha direktor
6.	13420005	Kasalxona bo'limi boshlig'i
7.	13420006	Korxona tibbiy-sanitariya bo'limi boshlig'i
8.	13420007	Profilaktoriy boshlig'i
9.	13420008	Qon quyish markazi rahbari
10.	13420009	Sog'liqni saqlash sohasida boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
11.	13420010	Sog'liqni saqlash sohasida departament direktori (boshlig'i)
12.	13420011	Sog'liqni saqlash sohasida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
13.	13420012	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar rahbari
14.	13420013	Sog'liqni saqlash tashkiloti bosh shifokori (direktori, boshlig'i)
15.	13420014	Tibbiy-mehnat ekspertizasi bo'yicha bosh ekspert
16.	22110001	Oilaviy tibbiyot shifokori
17.	22110002	Umumiy amaliyot shifokori
18.	22121001	Abdominal (qorin bo'shlig'i) jarrohi
19.	22121002	Akusher-ginekolog
20.	22121003	Akusher-ginekolog (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
21.	22121004	Akusher-ginekolog (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
22.	22121005	Allergolog
23.	22121006	Aviatsiya va kosmik tibbiyot shifokori
24.	22121007	Bolalar anesteziolog-reanimatologi
25.	22121008	Bolalar angiojarrohi
26.	22121009	Bolalar dermatokosmetologi
27.	22121010	Bolalar dermatovenerologi
28.	22121011	Bolalar endokrinologi
29.	22121012	Bolalar ftiziatr
30.	22121013	Bolalar gastroenterologi
31.	22121014	Bolalar gastroenterologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
32.	22121015	Bolalar gastroenterologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
33.	22121016	Bolalar ginekologi
34.	22121017	Bolalar immunolog-allergologi
35.	22121018	Bolalar infeksiyachilari
36.	22121019	Bolalar intervension jarrohi
37.	22121020	Bolalar jarrohi

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
38.	22121021	Bolalar kambustiologi
39.	22121022	Bolalar kardiologi
40.	22121023	Bolalar kardiologi (asosiy ixtisosligi funksional diagnostika)
41.	22121024	Bolalar kardiologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
42.	22121025	Bolalar kardioxirurgi
43.	22121026	Bolalar narkologi
44.	22121027	Bolalar nefrologi
45.	22121028	Bolalar nefrologi (asosiy ixtisosligi bo'yicha UZI diagnostikasi)
46.	22121029	Bolalar nevrologi
47.	22121030	Bolalar nevrologi (asosiy faoliyat yo'nalishi funksional diagnostika)
48.	22121031	Bolalar neyroxirurgi
49.	22121032	Bolalar onkologi va gematologi
50.	22121033	Bolalar otorinolaringologi
51.	22121034	Bolalar otorinolaringologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
52.	22121035	Bolalar patologoanatomi
53.	22121036	Bolalar psixiatri
54.	22121037	Bolalar psixoterapevti
55.	22121038	Bolalar pulmonologi
56.	22121039	Bolalar pulmonologi (asosiy faoliyat yo'nalishi endoskopiya)
57.	22121040	Bolalar pulmonologi (asosiy faoliyat yo'nalishi funksional diagnostika)
58.	22121041	Bolalar radiologiyasi shifokori
59.	22121042	Bolalar rentgenojarrohi
60.	22121043	Bolalar revmatologi
61.	22121044	Bolalar sitopatologi
62.	22121045	Bolalar sud-narkologiya ekspertiza shifokori
63.	22121046	Bolalar sud-psixiatriya ekspertiza shifokori
64.	22121047	Bolalar surdologi
65.	22121048	Bolalar tibbiy psixologi
66.	22121049	Bolalar toksikologi
67.	22121050	Bolalar travmatolog-ortopedi
68.	22121051	Bolalar urolog-andrologi
69.	22121052	Bolalar urolog-andrologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
70.	22121053	Bolalar urolog-andrologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
71.	22121054	Bolalar yuz-jag' jarrohi
72.	22121055	Favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar tibbiyoti shifokori
73.	22121056	Favqulodda yordam bo'linmasi shifokor-jarrohi
74.	22121057	Favqulodda yordam bo'linmasi shifokor-terapevti
75.	22121058	Funksional diagnostika shifokori
76.	22121059	Gistolog shifokor
77.	22121060	Intervension aritmolog
78.	22121061	Intervension kardiolog
79.	22121062	Ishlab chiqarish transfuziologi
80.	22121063	Jarroh (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
81.	22121064	Jarroh (asosiy ixtisosligi ultratovush diagnostikasi)
82.	22121065	Jarroh-ftiziatr
83.	22121066	Kasbiy patologiya shifokori

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
84.	22121067	Kattalar allergolog-immunologi
85.	22121068	Kattalar anesteziolog-reanimatologi
86.	22121069	Kattalar angiojarrohi
87.	22121070	Kattalar dermatokosmetologi
88.	22121071	Kattalar dermatovenerologi
89.	22121072	Kattalar endokrinologi
90.	22121073	Kattalar ftiziatri
91.	22121074	Kattalar gastroenterologi
92.	22121075	Kattalar gastroenterologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
93.	22121076	Kattalar gastroenterologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
94.	22121077	Kattalar gematologi
95.	22121078	Kattalar infeksionisti
96.	22121079	Kattalar intervension jarrohi
97.	22121080	Kattalar kambustiologi
98.	22121081	Kattalar kardiologi
99.	22121082	Kattalar kardiologi (asosiy ixtisosligi funksional diagnostika)
100.	22121083	Kattalar kardiologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
101.	22121084	Kattalar kardioxirurgi
102.	22121085	Kattalar kimyoterapevti
103.	22121086	Kattalar mammologi
104.	22121087	Kattalar nefrologi
105.	22121088	Kattalar nefrologi (asosiy ixtisosligi bo'yicha UZI diagnostikasi)
106.	22121089	Kattalar nevrologi
107.	22121090	Kattalar nevrologi (asosiy faoliyat yo'nalishi funksional diagnostika)
108.	22121091	Kattalar neyroxirurgi
109.	22121092	Kattalar onkologi
110.	22121093	Kattalar otorinolaringologi
111.	22121094	Kattalar otorinolaringologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
112.	22121095	Kattalar patologoanatomy
113.	22121096	Kattalar pulmonologi
114.	22121097	Kattalar pulmonologi (asosiy faoliyat yo'nalishi endoskopiya)
115.	22121098	Kattalar pulmonologi (asosiy faoliyat yo'nalishi funksional diagnostika)
116.	22121099	Kattalar rentgenojarrohi
117.	22121100	Kattalar revmatologi
118.	22121101	Kattalar sitopatologi
119.	22121102	Kattalar surdologi
120.	22121103	Kattalar toksikologi
121.	22121104	Kattalar travmatolog-ortopedi
122.	22121105	Kattalar urolog-andrologi
123.	22121106	Kattalar urolog-andrologi (asosiy ixtisosligi endoskopiya)
124.	22121107	Kattalar urolog-andrologi (asosiy ixtisosligi UZI diagnostikasi)
125.	22121108	Kattalar yuz-jag' jarrohi
126.	22121109	Klinik farmakolog
127.	22121110	Klinik laboratoriya diagnostikasi shifokori
128.	22121111	Klinik transfuziolog
129.	22121112	Koloproktol jarroh

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
130.	22121113	Kompyuter va magnit-rezonans tomografiyasi shifokori
131.	22121114	Metabolizm kasalliklari sohasidagi shifokor
132.	22121115	Narkolog
133.	22121116	Neonatal jarrohi
134.	22121117	Neonatolog
135.	22121118	Neonatolog (intensiv terapiya bo'yicha)
136.	22121119	Neonatolog-reanimatolog
137.	22121120	Nurlanish diagnostikasi shifokori
138.	22121121	Nurlanish terapiyasi sohasidagi shifokor
139.	22121122	Onkojarroh
140.	22121123	O'smirlar terapevti
141.	22121124	Palliativ yordam shifokori
142.	22121125	Pediatr
143.	22121126	Pediatr-neonatolog
144.	22121127	Perfuziolog
145.	22121128	Plastik, rekonstruktiv va estetik jarrohlik sohasidagi shifokor
146.	22121129	Psixiatr
147.	22121130	Psixoterapevt
148.	22121131	Radioizotop diagnostikasi shifokori
149.	22121132	Radiolog shifokor
150.	22121133	Rentgenolog shifokor
151.	22121134	Seksopatolog
152.	22121135	Shifokor-geriatr
153.	22121136	Spidolog shifokor
154.	22121137	Sport tibbiyoti shifokori
155.	22121138	Sud-narkologiya ekspertiza shifokori
156.	22121139	Sud-psixiatriya ekspertiza shifokori
157.	22121140	Sud-tibbiy ekspertiza shifokori
158.	22121141	Sud-tibbiy ekspertiza sohasidagi professional-mutaxassis
159.	22121142	Terapevt
160.	22121143	Tez va shoshilinch tibbiy yordam terapevti
161.	22121144	Tez va shoshilinch tibbiy yordam pediatri
162.	22121145	Tibbiy genetika shifokori
163.	22121146	Tibbiy mikrobiologiya sohasidagi shifokor
164.	22121147	Tibbiy psixologiya shifokori
165.	22121148	Tibbiyot sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
166.	22121149	Torakal (ko'krak qafasi) jarrohi
167.	22121150	Transfuziolog
168.	22121151	Transplantolog jarroh
169.	22121152	Uchastka terapevti
170.	22121153	Ultratovush diagnostikasi shifokori
171.	22121154	Umumiy amaliyot pediatri
172.	22121155	Umumiy jarrohlik sohasidagi shifokor
173.	22210001	Oliy ma'lumotli hamshira
174.	22210002	Tadqiqotchi hamshira

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
175.	22220001	Akusher-ginekolog (konsalting / oilaviy poliklinika, dispanser va boshqalar)
176.	22220002	Akusherlik sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
177.	22220003	Tug'ruqxona / perinatal markaz akusher-ginekologi (tug'ruqxona, uchastka, homiladorlik patologiyasi, shoshilinch ginekologiya va boshqalar)
178.	22300001	An'anaviy terapiya shifokori
179.	22300002	Fitoterapiya shifokori
180.	22300003	Girudoterapiya shifokori
181.	22300004	Gomeopatiya shifokori
182.	22300005	Manual terapiya shifokori
183.	22300006	Osteopat
184.	22300007	Refleksoterapiya shifokori
185.	22300008	Su-djok terapiya shifokori
186.	22400001	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi paramedik
187.	22400002	Ilg'or tibbiy yordam ko'rsatuvchi paramedik
188.	22400003	Jarrohlik texnigi
189.	22400004	Klinik xodim (paramedik)
190.	22400005	Paramedik amaliyotchi
191.	22400006	Tibbiy assistent
192.	22610001	Bolalar stomatologi
193.	22610002	Bolalar terapevt stomatolog shifokori
194.	22610003	Kattalar stomatologi
195.	22610004	Pediatric tish jarroh (og'iz qismi)
196.	22610005	Stomatologiya sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
197.	22610006	Terapevt stomatolog shifokori
198.	22610007	Tish jarrohi (og'iz qismida)
199.	22610008	Umumiy amaliyot stomatolog shifokori
200.	22631001	Jamoat salomatligi epidemiolog-shifokori
201.	22631002	Jamoat salomatligi shifokori
202.	22631003	Jamoat salomatligi sohasida professional-mutaxassis
203.	22631004	Metodolog shifokor
204.	22631005	Sog'liqni saqlash menejeri
205.	22631006	Statistik shifokor
206.	22631007	Valeolog shifokor
207.	22632001	Bakteriolog shifokor
208.	22632002	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi shifokori
209.	22632003	Epidemiolog shifokor
210.	22632004	Gigiyenist shifokor
211.	22632005	Kommunal gigiyena shifokori
212.	22632006	Mehnat gigiyenasi shifokori
213.	22632007	Mikrobiolog shifokor
214.	22632008	Oziq-ovqat gigiyenasi shifokori
215.	22632009	Parazitolog shifokor
216.	22632010	Radiatsion gigiyena shifokori
217.	22632011	Sanitariya-epidemiologiya xizmati biolog mutaxassisi

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
218.	22632012	Sanitariya-epidemiologiya xizmati entomolog mutaxassisi
219.	22632013	Sanitariya-epidemiologiya xizmati shifokori
220.	22632014	Sanitariya-epidemiologiya xizmati sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
221.	22632016	Umumiy gigiyena shifokori
222.	22632017	Virusolog shifokor
223.	22639001	Mehnatni muhofaza qilish va odam atrof-muhitining tibbiy jihatlarini sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
224.	22639002	Qishloq vrachlik punkti shifokori
225.	22641001	Ergoterapiya bo'yicha uslubchi-yo'riqchi
226.	22641002	Fizioterapevt
227.	22641003	Jismoniy reabilitatsiya bo'yicha uslubchi-yo'riqchi
228.	22642001	Bolalar tibbiy reabilitologi
229.	22642002	Kattalar tibbiy reabilitologi
230.	22642003	Reabilitatsiya terapevti
231.	22650001	Diyetolog
232.	22650002	Diyetolog shifokor
233.	22650003	Diyetologiya va ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
234.	22660001	Audiolog
235.	22660002	Audiologiya va nutqni rivojlantirish hamda tiklash bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
236.	22660003	Surdopedagog
237.	22660004	Til va nutq terapiyasi bo'yicha professional-mutaxassis
238.	22670001	Bolalar oftalmologi
239.	22670002	Kattalar oftalmologi
240.	22670003	Oftalmojarroh
241.	22670004	Oftalmologiya sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
242.	22670005	Onko oftalmolog shifokor
243.	22670006	Optometrist
244.	22670007	Ortoptist
245.	22690001	A'zolar ko'chirib o'tkazishni muvofiqlashtiruvchi professional-mutaxassis
246.	22690002	Gerontolog
247.	22690003	Podiatr / Podolog
248.	22690004	Tibbiy muassasa davolovchi jismoniy tarbiya yo'riqchisi
249.	22690005	Tibbiy muassasaning davolovchi jismoniy tarbiya uslubchisi
250.	32111001	Kompyuter tomografiyasi bo'yicha rentgen texnigi
251.	32111002	Tibbiy tasvirga olish texnigi (Radiologiya texnigi)
252.	32112001	Eforli elektrokardiografiya texnigi
253.	32112002	Elektroensefalografiya (EEG) texnigi
254.	32112003	Elektrokardiografiya (EKG) texnigi
255.	32112004	Elektromiografiya (EMG) texnigi
256.	32112005	Exokardiografiya texnigi
257.	32112006	Xolter elektrokardiografiya texnigi
258.	32119001	Biotibbiyot uskunalari texnigi
259.	32119002	Dializ texnigi

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
260.	32119003	Kislorod bo'yicha texnik
261.	32119004	Perfuzionist
262.	32119005	Polisomnografiya/uyqu texnigi
263.	32119006	Tibbiyot qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik
264.	32119008	Yadro tibbiyoti texnigi
265.	32120001	Epidemiolog-entomolog shifokor yordamchisi
266.	32120002	Epidemiolog-shifokor yordamchisi
267.	32120003	Feldsher-laborant
268.	32120004	Feldsher-yo'riqchi
269.	32120005	Laborant-bakteriolog (-parazitolog)
270.	32120006	Sanitar feldsher
271.	32120007	Sanitar shifokor yordamchisi
272.	32120008	Sanitariya-epidemiologiya xizmati laboranti
273.	32120009	Tibbiy laborant
274.	32141001	Tish protez laboratoriyasi laboranti
275.	32141002	Tish protezi texnigi
276.	32141003	Tish texnigi
277.	32141004	Tish texnikasi buyumlarini quyuvchi
278.	32142001	Eshitish uskunalari qo'llovchi
279.	32142002	Mexanik-protezist
280.	32142003	Ortopediya va travmatologiya texnigi
281.	32142004	Protezist
282.	32210001	Ayollar va bolalar salomatligi bo'yicha hamshiralar
283.	32210002	Ixtisoslashgan tibbiyot hamshirasi
284.	32210003	Muassasalarga birlashtirilgan hamshiralar
285.	32210004	Profilaktika va jamoat sog'ligi bo'yicha hamshiralar
286.	32210005	Ruhiy salomatlik bo'yicha hamshiralar
287.	32210006	Shoshilinch va yordamchi tibbiy xizmat hamshiralari
288.	32210007	Umumiy amaliyot tibbiyot hamshirasi
289.	32220001	Akusherka
290.	32220002	Oilaviy poliklinika feldsher-akusheri
291.	32220003	Umumiy amaliyot feldsher-akusheri
292.	32300001	An'anaviy xitoy tabobati shifokori
293.	32300002	Dorivor o'tchi
294.	32300003	Fitoterapevt tabib
295.	32300004	Ign bilan davolash mutaxassisi (ignaterapevt)
296.	32300005	Noan'anaviy tibbiyot amaliyotchisi
297.	32300006	Suyak tuzatuvchi
298.	32300007	Xalq tabibi
299.	32300008	Xalq tabobati bo'yicha mutaxassis
300.	32511002	Stomatolog yordamchisi
301.	32512003	Stomatologik gigiyenist
302.	32513004	Tish feldsheri
303.	32520001	Tibbiy arxivarius
304.	32520002	Tibbiy ro'yxatga oluvchi
305.	32520003	Tibbiy ro'yxatga oluvchi (poliklinika)

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
306.	32530001	Feldsher
307.	32530002	Feldsher-valeolog
308.	32540001	Optometrist (o'rta malakali)
309.	32550001	Elektroterapevt
310.	32550002	Ergoterapiya texnigi
311.	32550003	Fizioterapevt yordamchisi
312.	32550004	Fizioterapiya texnigi
313.	32550005	Gidroterapiya texnigi
314.	32550006	Massajchi
315.	32560001	Ambulator-poliklinika bo'yicha shifokor yordamchisi
316.	32570005	Mehnat salomatligi va xavfsizligi nazoratchisi
317.	32570006	Mehnat salomatligi va xavfsizligi texnigi
318.	32570011	Sanitariya inspektori
319.	32570012	Sog'liqni saqlash inspektori
320.	32570013	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi
321.	32580001	Shoshilinch tibbiy yordam texnigi
322.	32590001	Anesteziya texnigi
323.	32590002	Audiometriya texnigi (eshitish o'lchovi)
324.	32590003	Operatsion blok texnigi
325.	53210001	Ayollar va bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam tashkilotchisi
326.	53210002	Bemorga qarash bo'yicha kichik tibbiy hamshira
327.	53210003	Bemorlarni parvarishlash bo'yicha yordamchi
328.	53210004	Ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash muassasalarida qarovchi
329.	53210005	Kasalxona yoki klinikada parvarish bo'yicha yordamchi
330.	53210006	Mehribonlik, muruvvat uylari hamshirasi
331.	53210007	Palata kichik tibbiy xodimi
332.	53210008	Sanitariya shifokor yordamchisi
333.	53210009	Sanitariya xodimi (umumiy yo'nalish)
334.	53210010	Sog'liqni saqlash muassasasi sanitari (sanitarkasi)
335.	53210011	Sport tibbiyoti davolovchi jismoniy tarbiya yo'riqchi hamshirasi
336.	53220001	Individual parvarishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xodim
337.	53220002	Kasallarga uyda qarovchi
338.	53220003	Uyda keksalarni parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi
339.	53220004	Uyda parvarishlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yordamchi
Farmatsevtika sohasiga tegishli lavozim va kasblar nomi		
340.	22621001	Farmatsevt
341.	22621002	Farmatsevt biotexnolog
342.	22621003	Farmatsevt muhandis
343.	22621004	Farmatsevt sud kimyogari
344.	22621005	Farmatsevt tahlilchi
345.	22621006	Farmatsevt texnolog
346.	22621007	Farmatsevtika sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
347.	22621008	Klinik farmatsevt
348.	22621009	Kosmetsevtika bo'yicha farmatsevt-texnolog
349.	22621010	Provizor-texnolog

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
350.	22621011	Tahlilchi-provizor
351.	22622001	Farmatsevt (provizor)
352.	22622002	Farmatsevt marketolog
353.	22622003	Farmatsevt-inspektor
354.	22622004	Inspektor-provizor
355.	22622005	Ma'lumot beruvchi provizor
356.	22622006	Retsept bo'yicha provizor
357.	32130001	Dori preparatlarini ishlab chiqarish operatori
358.	32130002	Farmatsevt (o'rta ma'lumotli)
359.	32130003	Farmatsevt yordamchisi (assistenti)
360.	32130004	Farmatsevt-retseptar
361.	32130005	Fitobarmen
362.	53290001	Dori vositalarini qabul qilish va parvarish bo'yicha yordamchi
363.	53290002	Ijtimoiy muassasalarda tungi navbatchi
364.	53290003	Ijtimoiy xizmatlar markazi xodimi
365.	53290004	Stomatologik bemorlarni parvarishlash bo'yicha yordamchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar tahlili

Tarmoq kengashi tomonidan 2025-2026-yillar mobaynida sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar to'g'risida ma'lumot quyidagi 3-jadvalda keltirilmoqda:

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1	5	21	2025 yil, dekabr
2	15	59	2026 yil, dekabr

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha malaka darajalarining tavsifi					
Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	Tibbiyot va farmatsevtika sohasiga oid o'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar;	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar;	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuv ostida ishlash;	-
2	2	Tibbiyot va farmatsevtika sohasiga oid o'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar;	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar;	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish;	-
3	3.1	Odam yurak-qon tomir, mushak va nerv tizimlarining asosiy tuzilishi va funksiyalari; Elektrokardiografiya, elektromiografiya va exokardiografiya usullarining asosiy tamoyillari;	Tibbiy diagnostika uskunalari tayyorlash, sozlash va ishga tushirish; Bemorni tekshiruvga tayyorlash va xavfsiz sharoitni ta'minlash; Sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish va asboblarni dezinfeksiya qilish;	Ish harakatlari va natijalari uchun shaxsan javobgarlik; Ishni belgilangan yo'riqnoma va standartlarga muvofiq mustaqil bajarish, oddiy texnik muammolarni yechish hamda murakkab ishlar bo'yicha shifokor rahbarligida faoliyat yuritishga oid mas'uliyat va mustaqillik;	86.91 Diagnostik tasvirlash xizmatlari va tibbiy laboratoriya faoliyati 32112001 Eforli elektrokardiografiya texnigi 32112004 Elektromiografiya (EMG) texnigi 32112005 Exokardiografiya texnigi

		Tibbiy diagnostika uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari; Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari; Sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati talablari;	Diagnostik ma'lumotlarni to'g'ri yozish va tibbiy hujjatlarda qayd etish; Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish;		
	3.2	Mikrobiologiya, parazitologiya va gigiyenaning asosiy qoidalari; Laboratoriyada qo'llaniladigan asbob-uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari; Reaktivlar va biologik moddalar bilan ishlash qoidalari; Laboratoriya xavfsizligi, biologik va kimyoviy moddalar bilan ishlashdagi xavfsizlik choralarini; Sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati talablari;	Biomateriallarni to'g'ri olish, saqlash va tahlil uchun tayyorlash; Mikroskopiya, bakteriologik va parazitologik tahlil usullarini amalga oshirish; Reaktivlar va oziq muhitlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; Laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalanish va ularning ishchi holatini tekshirish; Tahlil natijalarini yozish, qayd etish va tibbiy hujjatlarda to'g'ri aks ettirish;	Ish harakatlari va natijalari uchun shaxsan javobgarlik; Ishni belgilangan yo'riqnoma va laboratoriya standartlariga muvofiq mustaqil bajarish; Asboblar va reaktivlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etish bo'yicha mas'uliyat; Oddiy laboratoriya muammolarini mustaqil hal etish, murakkab holatlarda tajribali mutaxassis rahbarligida ishlashga oid mas'uliyat va mustaqillik;	86.91 Diagnostik tasvirlash xizmatlari va tibbiy laboratoriya faoliyati 32120005 Laborant-bakteriolog (parazitolog)

	3.3	Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va harakat apparati funksiyalari; Fizioterapiya va ergoterapiya usullarining asosiy prinsiplari va ta'sir mexanizmlari; Asbob-uskunalarining tuzilishi, ishlash prinsiplari va texnik xizmat ko'rsatish qoidalari; Elektr, issiqlik, nur, suv va harakat terapiyasi usullari; Muolaja jarayonida Sanitariya-gigiyena, infeksiya nazorati va sterilizatsiya qoidalari;	Asbob-uskunalarini tekshirish, tayyorlash va muolaja uchun ishchi holatga keltirish; Bemorni fizioterapevtik va ergoterapevtik muolajalarga tayyorlash; Muolaja jarayonida shifokor ko'rsatmasi asosida uskunalarini boshqarish va parametrlarni nazorat qilish; Bemor holatini kuzatish, muolaja ta'sirini baholash va xavfsizlikni ta'minlash; Sanitariya-gigiyena va dezinfeksiya qoidalariga rioya qilish;	Ish harakatlari va natijalari uchun shaxsan javobgarlik; Belgilangan yo'riqnoma va standartlarga muvofiq muolajalarni mustaqil bajarish; Muolaja jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va Asbob-uskunalarining ishchi holatini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat; Bemor xavfsizligi va tibbiy ma'lumotlarni maxfiy saqlash uchun javobgarlik; Oddiy texnik va tashkiliy muammolarni mustaqil hal etish, murakkab holatlarda shifokor rahbarligida ishlashga oid mas'uliyat va mustaqillik;	86.95 Fizioterapiya tadbirlari 32550002 Ergoterapiya texnigi 32550003 Fizioterapevt yordamchisi
4	4.1	Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va asosiy klinik tizimlar; Anesteziologiya va reanimatologiyaning asosiy prinsiplari hamda xavfsiz ish usullari; Mehnat gigiyenasi, kasbiy patologiya va tibbiy-mehnat ekspertizasi tamoyillari;	Tibbiy Asbob-uskunalarini tayyorlash, sozlash va ishlatish, ularning ishchi holatini tekshirish va nazorat qilish ko'nikmalari; Asboblarda oddiy nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, profilaktika ishlarini amalga oshirish ko'nikmalari;	Belgilangan tibbiy va texnik yo'riqnomalarga rioya qilgan holda ish jarayonlarini mustaqil bajarish, ish natijalari uchun shaxsan javobgarlik; Asbob-uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik va sifat talablariga amal qilish bo'yicha mas'uliyat;	86.10 Shifoxona tashkilotlari faoliyati 13420006 Korxona tibbiy-sanitariya bo'limi boshlig'i 86.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat 32570013 Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi

		Sog'liqni saqlash tashkilotlarining boshqaruv tuzilmasi va sanitariya nazorati asoslari; Asbob-uskunalarining tuzilishi, ishlash prinsiplari va profilaktik xizmat ko'rsatish tartibi; Elektr xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati qoidalari; Tibbiy etika, deontologiya va bemor xavfsizligi prinsiplari;	Bemorni tekshiruv yoki muolaja uchun tayyorlash, xavfsiz ish sharoitini ta'minlash va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalari; Tibbiy ko'rsatkichlar va signallarni o'lchash, yozish va dastlabki tahlil qilish amaliy ko'nikmalari;	Oddiy texnik va tashkiliy muammolarni mustaqil yechish, murakkab holatlarda tajribali mutaxassis rahbarligida faoliyat yuritish; Bemor xavfsizligini ta'minlash, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va jamoada samarali ishlash bo'yicha mas'uliyat va mustaqillik;	
	4.2	Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va asosiy klinik tizimlar; Tibbiy diagnostika, anesteziya, stomatologiya va fizioterapiya jarayonlarining umumiy prinsiplari; Asbob-uskunalarining tuzilishi, ishlash tamoyillari va texnik xizmat ko'rsatish tartibi; Sanitariya-gigiyena, infeksiya nazorati va sterilizatsiya standartlari;	Asbob-uskunalarini tayyorlash, sozlash va ishchi holatini tekshirish; Asboblardagi parametrlarni boshqarish, monitoring natijalarini yozish va tahlil qilish; Tish protezlari va fizioterapevtik uskunalar bilan amaliy ishlash; Nosozliklarni aniqlash, profilaktik va oddiy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;	Ish jarayoni va natijalari uchun shaxsan javobgarlik; Belgilangan yo'riqnoma va standartlar asosida ishni mustaqil bajarish; Asboblarni, uskunalar va bemor xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat; Oddiy texnik va tashkiliy muammolarni mustaqil hal etish, murakkab holatlarda tajribali mutaxassis rahbarligida ishlashga oid mas'uliyat va mustaqillik;	86.10 Shifoxona tashkilotlari faoliyati 32590001 Anesteziya texnigi 86.23 Stomatologiya sohasidagi faoliyat 32141002 Tish protezi texnigi 86.91 Diagnostik tasvirlash xizmatlari va tibbiy laboratoriya faoliyati 32112006 Xolter elektrokardiografiya texnigi 86.95 Fizioterapiya tadbirlari 32550005 Hidroterapiya texnigi

5	5.1	Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va patofiziologiyasi bo'yicha bilimlar; Anesteziya va reanimatsiya jarayonlarining asosiy prinsiplari hamda tibbiy xavfsizlik talablari bo'yicha bilimlar; Perfuziya, kislorod terapiyasi va ventilyatsiya uskunalarining tuzilishi va ishlash tamoyillari bo'yicha bilimlar; Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish algoritmlari va klinik holatlarni baholash prinsiplari bo'yicha bilimlar; Aseptika, antiseptika va infeksiya nazorati qoidalari bo'yicha bilimlar; Muolaja va operatsiya jarayonlarida jamoaviy ishlash, tezkor qaror qabul qilish va kommunikatsiya tamoyillari bo'yicha bilimlar;	Anesteziya, perfuziya va reanimatsiya uskunalarini tayyorlash, tekshirish va ishlatish ko'nikmalari Shoshilinch holatlarda bemorni stabilizatsiya qilish va tibbiy jamoani qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari; Kislorod ta'minoti tizimlarini nazorat qilish va xavfsiz ishlatish ko'nikmalari; Asboblarni sterilizatsiya qilish, sanitariya va infeksiya nazorati talablariga amal qilish ko'nikmalari; Muolaja yoki operatsiya paytida bemor holatini monitoring qilish ko'nikmalari; Asbob-uskunalaridagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish ko'nikmalari; Tibbiy ma'lumotlarni yozish, hisobot yuritish va elektron tizimlarda foydalanish ko'nikmalari;	Kasbiy faoliyat jarayonlari va natijalari, bemor xavfsizligi hamda Asbob-uskunalarining ishlashi uchun shaxsan javobgarlik; Anesteziya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiy yordam jarayonlarida belgilangan standartlar hamda xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etish bo'yicha mas'uliyat; Ishni mustaqil rejalashtirish va tashkil etish, operatsiya yoki shoshilinch yordam jarayonlarini texnik jihatdan ta'minlash bo'yicha mustaqillik; Aseptika, antiseptika va infeksiya nazorati qoidalari bajarilishini ta'minlash, ish samaradorligi va jamoa faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid mas'uliyat va mustaqillik;	86.10 Shifoxona tashkilotlari faoliyati 32119003 Kislorod bo'yicha texnik 32119004 Perfuzionist 32580001 Shoshilinch tibbiy yordam texnigi 32590003 Operatsion blok texnigi
---	-----	--	--	---	---

